

DEFEKTOLOGNING KORREKSION ISHLARIDA LOGOPEDIK RITMIKA

O'rinovaleruza Uljayevna

Farg'ona davlat universiteti, maktabgacha ta'lim kafedrasи dotsenti

Dexkonova Dilrabo Muxamadjonovna

magistrant

ANNOTATSIYA

Bolalarning jismoniy jihatdan barkamol bo'lib yetishishlari ko'p jihatdan harakatga bog'liq. Musiqiy ritmik harakatlar esa bu borada katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologining musiqa rahbari bilan birgalikdagi logopedik ritmik harakatlarni amalga oshirish ishlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Musiqiy ritmik harakatlar, kompetensiya, pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiya, logoredik ritmika, duduqlanish, dislaliya, dizartriya, rinolaliya, afaziya, musiqiy o'lchov va metr tuyg'usi, logoritmika

ЛОГОПЕДИЧЕСКИЙ РИТМ В КОРРЕКЦИОННОЙ ДЕФЕКТОЛОГИЧЕСКОЙ РАБОТЕ

Аннотация: Физическое развитие детей во многом зависит от движения. Большое значение в этом отношении имеют музыкальные ритмические движения. В данной статье рассказывается о работе логопеда ДОУ с музыкальным руководителем по выполнению логопедических ритмических движений.

Ключевые слова: Музыкально-ритмические движения, компетентность, педагогическое мастерство, профессиональная компетентность, логоредическая ритмичность, заикание, дислалия, дизартрия, ринолалия, афазия, чувство музыкальной гаммы и метра, логоретика.

LOGOPEDIC RHYTHM IN THE CORRECTION WORKS OF DEFECTOLOGY

Abstract: Physical development of children is largely dependent on movement. Musical rhythmic movements are of great importance in this regard. This article talks about the work of the speech therapist of the pre-school education organization with the music director on the implementation of logopedic rhythmic movements.

Key words: Musical rhythmic movements, competence, pedagogical skills, professional competence, logoredic rhythmicity, stuttering, dyslalia, dysarthria, rhinolalia, aphasia, sense of musical scale and meter, logoretics

ENB bolalar rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash ishlari, maktabgacha ta’lim oldida turgan muhim vazifalarni (shaxsni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirish, ta’lim berish, mehnatga yo‘naltirish, o‘qitish, ma’lum bir kasbga yo‘naltirish va boshqalar)dan tubdan farq qilib, o‘qitish vaqtida defektologiya vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o‘ziga xos uslublar va qiyinchiliklar borki, bu defektologiya fanining bir bo‘lagi bo‘lgan surdopedagoglar zimmasiga mas’uliyatli vazifalar qo‘ymoqda. Surdopedagogika – ENB bolalarning o‘ziga xos rivojlanishdagi xususiyatlarini o‘rganadigan va ular ta’lim-tarbiyasi bilan ilmiy-amaliy ravishda shug‘ullanadigan fan sohasidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ruhiy va jismoniy darajasini oshirish, kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislarining hamkorlikda ishlashi yaxshi natijalarni qayd etishga sabab bo‘ladi. Defektologning ish samaradorligini oshirish uchun tarbiyachi, psixolog bilan bir qatorda musiqa rahbarining ham hissasi katta.

Bolalarning jismoniy jihatdan barkamol bo‘lib yetishishlari ko‘p jihatdan harakatga bog‘liq. Musiqiy ritmik harakatlar esa bu borada katta ahamiyat kasb etadi. Defektolog va musiqa rahbarining hamkorlik ishlaridan biri logoritmika mashg‘ulotlari hisoblanadi. Logoritmika ikkita so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, ”logos“-grekcha so‘z, nutq; ”ritmika“ – italyancha harakatlar aniqligini hosil qiluvchi mashqlar tizimidir.

Logoredik ritmika – so‘z, musiqa, harakatning uyg‘unlashuvi, istalgan reabilitatsion uslubiga ko‘ra ta’lim, tarbiya va turli anomaliyalarni rivojlanishi, nutqiy va nutqiy bo‘lmagan nuqsonlarni davolash uslubidir.

Logopedik ritmika pand nasihat va o‘ziga xos tamoyillarga ega. Ular o‘zaro bog‘langan tarbiya, nutqiy buzilishi bo‘lgan odamlarning funksional korreksiyasini belgilaydi. Shuningdek turli tashxis anomaliyalarda turlicha yondashishni talab etadi.

Bolalar tanasi o‘sigan holda ichki a’zolar faoliyati, ishslash rejimi turlicha bo‘ladi. Muntazam davom etgan ritm o‘z natijasini beradi. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlar olib boriladi. Bolalar bilan yakka shug‘ullanganda uning yoshi, jinsi, harakatlanish maromi hisobga olinadi. Avval oddiy, keyin murakkab topshiriqlarni bajarish ko‘nikmalari hosil qilinadi.

Logopedik ritmikaning vositalari quyidagilar: turli yo‘nalishlarda yurish va harbiylarcha yurish, nafas va ovoz artikulyatsiyasini rivojlantirish uchun mashqlar,

muskullar tonusini boshqaruvchi mashqlar, hisobli mashqlar, diqqatni faollashtiruvchi mashqlar, musiqiy o'lchov va metr tuyg'usini shakllantiruvchi mashqlar, musiqiy tempni rivojlantiruvchi mashqlar, o'yinli faoliyat, ijodiy tashabb-uslarni rivojlantiruvchi mashqlar va h.klar. Logoritmik vositalar musiqiy tarbiya ishida o'zining maxsus xususiyatiga egalik qiladi, biroq ular asosan asabiy-psixiatrik va logopedik tashkilotlarda davolash-pedagogik usul sifatida ko'rib chiqiladi.

Logopedik ritmika aqliy, ma'naviy, estetik va sensor tarbiyani harakatlanish faoliyati jarayonida bir vaqtning o'zida amalga oshirilishini shart qilib qo'yadi. Har tomonlama ta'sir butun organizmning umumiy malaka hosil qilishini, asab tizimi boshqaruvini takomillashtiradi.

Duduqlanish, dislaliya, dizartriya, rinolaliya, afaziya va boshqa buzilishlarda mashg'ulotlar turlicha tuziladi. Masalan duduqlanishda logoritmik mashg'ulotlar motor buzilishlarni korreksiyashga, rinolaliyada esa eshitish diqqatini, og'iz va burundan nafas olishni farqlashga, burunlanishni yo'qotishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda deyarli barcha MTTlarida nutqiy buzilishi bo'lgan bolalarga keng qamrovli yordamni tashkil yetish mutaxassislarining oldidagi asosiy vazifalardan sanaladi. Logoritmika mashg'ulotlari musiqa rahbari va defektologning hamkorlikdagi ishi-ta'limi hisoblanib, korreksion kurs davomida haftasiga bitta logopedik ritmika va bir marta musiqiy-ritmik mashg'ulotlar o'tkaziladi. Musiqa rahbari va defektologning hamkorlik rejasida nutqiy nuqsonli bolalarning ro'yxati, tashxisi, ular bilan qancha muddatda qanday ishlar olib borish kerakligi ko'rsatilgan bo'lishi kerak va yil davomida bu ishlar tartib bilan amalga oshirilishi kerak. Defektolog korreksion ish davomida musiqa rahbariga maslahatlar berishi, bolaning ota-onasini o'zgarishlardan xabardor qilib turishi kerak.

Bolalar bilan mashg'ulotlar ancha erkin, majburlanmaydigan xarakterda bo'lishi lozim, chunki ular musiqiy –o'yinli, tasviriy va badiiy-nutqiy faoliyat asosiga quriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Uljayevna O.F. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish xususiyatlari //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B2. – C. 88-91.
2. Uljayevna O. R. F., Saydamatovna S. Z. Maktabgacha yoshdagи bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning o'quv-uslubiy ta'minoti //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B3. – C. 349-355.
3. Uljayevna O. F. Bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy salohiyatini takomillashtirishda ilmiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 660-667.
4. Uljayevna U. F. et al. Creolized texts, their features and possibilities //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 668-673.

5. Uljayevna o. F. Et al. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 654-659.
6. Uljaevna U. F. Et al. Development of creative activity of preschool children in art game as a psychological and pedagogical problem //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 47-51.
7. Uljaevna F. Et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 4. – C. 444-448.
8. Uljayevna O. R. F., Saydamatovna S. Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning o'quv-uslubiy ta'minoti //Science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B3. – C. 349-355.
9. Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi. The concept of cosmonics and its nature". International conference on Studies in Humanity, Education and Sciences Helsinki, Finland.ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, January 10th 2022
10. Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi. Basics of comparative study of cosmonims (sun,moon ...) In uzbek and english languages. British journal of global Ecology and Sustainable Development. Volume-02, March, 2022 ISSN (E): 2754-9291
11. Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi. Comparative Study of Cosmonims (Sun, Moon ...) In Uzbek and English. In volume 7, of Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences April, 2022.
12. Urinova Feruza Uljayevna, Valiyeva Hojirakhon Ilhomjon kizi. Development of intellectual abilities of preschool children. Through developing technologies. Modern journal of social sciences and humanities. Issn:2795-4846.Vol.4/(2022). <https://mjssh.academicjournal.io/index.php/mjssh>.
13. Uljayevna U. F. et al. Creolized texts, their features and possibilities //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 668-673.
14. Uljaevna U. F. Et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern journal of social sciences and humanities. – 2022. – т. 4. – c. 444-448.
15. Uljaevna u. F. Et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //modern journal of social sciences and humanities. – 2022. – т. 4. – c. 444-448.
16. Уринов Рустамбек Ёкубжонович. Специфика англоязычной технической документации в сфере информационных технологий. Science and innovation. International scientific journal volume 1 issue 7 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337
17. O'rinovala Feruzaxon Uljayevna. Nazirova Gulasal Toxirjon qizi. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy salohiyatini takomillashtirishda ilmiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi. Journal of advanced research and stability. | 2022. 660 -667